O'zbekistonda suv zaxiralardan foydalanishning retrospektiv tahlili .....	1324
Axmedov Sayfullo Normatovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to'lov tizimlarining o'rni .....	1334
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li, Rizayev Anvar Baxtiyorovich	
Fostering Entrepreneurship and Enhancing Women's Employment: The Uzbekistan Perspective .....	1338
Kholiyorova Shokhista	
Zamonaviy soliq tizimlarining amal qilish xususiyatlari .....	1341
Taniyev Ahmadjon Bahromovich	
Mamlakatimizda tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy asoslari .....	1347
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Mamlakat iqtisodiyotining samarali rivojlanishida hayot sug'urtasining o'rni .....	1352
O. Jono'zoqov	
Sanoatda resurs tejamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga erishish .....	1358
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
Southeast Asia's Green Economy and Environmental Taxation .....	1364
Fayzieva Nargiza Rabimovna	
Tijorat banklari biznesini boshqarishning asosiy yo'nalishlari va tahlili.....	1371
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich	
O'zbekiston Respublikasida islom banklarini tashkil etishda xorij tajribasining o'rni .....	1375
Yo'ldosheva Iroda Ibodulla qizi	
Baliqchilik tarmog'iда samaradorlikni baholash masalalari .....	1380
Fayziyev Oybek Raximovich, Aitimbetov Amirbek Koishibekovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy-iqtisodiy asoslari va davlat siyosati..	1389
Xalikov Suyun Ravshanovich	
O'zbekiston Respublikasi hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar .....	1394
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	



O'zbekistonda davlat-xususiy sherkchilik loyihamarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish.....	1401
<b>Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li</b>	
Korxonalar faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichlar asosida reytingni aniqlash .....	1411
<b>Maxkamboyev Komil Abdulxakovich</b>	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda klaster-kooperatsiya tizimi samaradorligini oshirish masalalar .....	1416
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna</b>	
Kimyo tolalari asosida to'qimachilik sanoatini diversifikatsiyalash.....	1424
<b>Raximov Furqat Jalolovich</b>	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari .....	1431
<b>Alimbayeva Sevara Alimbayevna</b>	
O'zbekistonda islom banklarini tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish imkoniyatlari .....	1437
<b>Yo'idosheva Iroda Ibodulla qizi</b>	
Yalpi sug'urta mukofoti hajmiga ta'sir etuvchi omillar asosida sug'urta bozorini ekonometrik tahlili.....	1441
<b>Mirzayev Bobur Soyibjonovich</b>	
Biznesni tugatishning yakuniy bosqichi: tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish .....	1448
<b>Davletov Ikram Raximberganovich</b>	
Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире .....	1452
<b>Нуриллаев Рахмат Ярашевич</b>	
Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda klasterlash imkoniyatlaridan foydalanish .....	1458
<b>Mavlano G'olib</b>	
Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tkazish sharoitida "yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari .....	1464
<b>Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich, Umarov Oqil Omiljonovich</b>	
Метод проектов как одно из условия успешного формирования антикоррупционной компетенции студентов высшей школы .....	1470
<b>Мохоров Дмитрий Анатольевич</b>	
Mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishning xalqaro huquqiy asoslari va institutlari .....	1476
<b>Askarov Zoxidjon Sadikjanovich</b>	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va ta'minlash yullari .....	1481
<b>Abdusalomon Olimjon Eshmirzayevich</b>	



# IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'LIGA O'TKAZISH SHAROITIDA "YASHIL" SANOAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

**Fazullayev Jonibek Negmatullayevich**

O'zMU, "Makroiqtisodiyot" kafedrasi tayanch doktoranti, "Alfraganus University" nodavlat universiteti "Moliya" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Umarov Oqil Omiljonovich**

"Alfraganus University" nodavlat universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqlada rivojlanayotgan mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishda yuzaga keladigan iqtisodiy-ijtimoiy zaifliklarni yuzaga kelish shakllari bayon etilgan, ularni bartaraf etishda "yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish xususiyatlari tahlil qilingan. Xitoy va Marokashning bu boradagi tajribalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** "yashil" iqtisodiyot, "yashil" sanoat siyosati, gorizontal va vertikal sanoat siyosati, diversifikatsiya.

**Abstract:** The article describes the forms of economic and social vulnerabilities that arise during the formation of a "green" economy in developing countries, and analyzes the features of the implementation of "green" industrial policy in order to eliminate them. The experience of China and Morocco in this regard is studied.

**Key words:** "green" economy, "green" industrial policy, horizontal and vertical industrial policy, diversification.

**Аннотация:** В статье описываются формы экономических и социальных уязвимостей, возникающих при формировании "зеленой" экономики в развивающихся странах, и анализируются особенности реализации "зеленой" промышленной политики с целью их устранения. Изучается опыт Китая и Марокко в этом отношении.

**Ключевые слова:** "зеленая" экономика, "зеленая" промышленная политика, горизонтальная и вертикальная промышленная политика, диверсификация.

## KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish modeliga o'tkazish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Jumladan, texnologik taraqqiyotning so'nggi bosqichi bo'lgan To'rtinchı sanoat inqilobining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya va "yashil" texnologiyalarga asoslangan atrof-muhitiga aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan iqtisodiy o'sish modeliga o'tish Yangi O'zbekistonda va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda kun tartibidaga vazifaga aylandi.



"Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun qo'llaniladigan chora-tadbirlar atrof-muhit va barqaror iqtisodiy rivojlanish borasidagi ijobji maqsadlarni ko'zlasa-da, sezilarli darajada salbiy iqtisodiy ta'sirlarga ham ega. Chunki mamlakatlar ishlab chiqarish va iste'molning nisbatan yashilroq bo'lgan tizimlarini yaratuvchi tarkibiy siyosatlarni amalga oshirishga harakat qildilar. Iqtisodiyot tarkibida diversifikatsiyalashuv darjasasi past va "yashil" bo'lmagan tarmoqlar ulushi katta bo'lgan mamlakatlar "yashil" iqtisodiyotga o'tishda eng himoyasiz va zaif mamlakatlar hisoblanadi, chunki mamlakatda "yashil" iqtisodiyotga o'tish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida an'anaviy tovar va xizmatlarga bo'lgan talab kamayishi mumkin. Iqtisodiyotni "yashil" sanoat siyosati orqali diversifikatsiyalash ushbu muammolarni hal etishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuv darjasasi yuqori bo'lsa-da, an'anaviy tarmoqlar ulushining yuqoriligi sharoitida "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishda "yashil" sanoat siyosati asosida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning ilmiy-nazariji jihatlarini o'rganish muhimdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasining mazmuni, "yashil" innovatsiyalar va texnologiyalar, "yashil" o'sish das-taklari, "yashil" sanoat siyosati xususiyatlari va bu boradagi ayrim rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari borasidagi ilmiy izlanishlar K. Rennings, R. Kemp, D. Rodrik, A. Subramanian, F. Trebbi, L.S. Karp, M.T. Stevenson, T. Altenburg, C. Assman, B. Shinke, J. Klavitter kabi xorijiy tadqiqotchilar ishlarini amalga oshirgan. MDH mamlakatlari iqtisodchilari L.A. Mochalova, M.N. Ignateva, V.Ye. Strovskiy, A. Sorokin, A. Brizhev, A. Strokov, S.V. Kiselevlar ushbu mavzuda ilmiy izlanishlar qilgan.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishda A.V. Vaxabov, Sh.X. Xajibakiyev, Sh.Toshmatov, D.Sh. Odinayev, N. Mahmudov, D.Sh. Yavmutov kabi iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, prof. A.V. Vaxabov va Sh.X. Xajibakiyevlar o'z ishlarida "yashil" iqtisodiyot asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amalii jihatlarini yoritib bergen, "yashil" iqtisodiyotga o'tishning xorijiy tajribalari va ulardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini tahlil etgan<sup>1</sup>.

Odinayev D.Sh. "yashil" iqtisodiyot va "yashil" o'sish ko'rsatkichlar tizimi va ularni aniqlashdagi tyli yondashuvlarni tadqiq qilgan<sup>2</sup>.

Tadqiqotchi Fayzullayev J.N. tomonidan "yashil" iqtisodiyotga o'tishda tashqi savdo siyosati va global qo'shilgan qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv asosida iqtisodiyotni diversifikatsiyalashning ahamiyati tahlil etilgan<sup>3</sup>.

Ushbu tadqiqotchilarning ishlari "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan bo'lsa-da, milliy iqtisodiyotning "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar oldida kelib chiqadigan tarmoqlarning ojizligini bartaraf etish, sanoat siyosati va "yashil" o'sishni siyosati o'rta-sida kelib chiqadigan nomutanosibliklar masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida induksiya, deduksiya, analiz, sintez, tizimli tahlil, statistik tahlil, qiyosiy taqqoslash, metodlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojalanyotgan mamlakatlar "yashil" iqtisodiyotga o'tish "yashil" texnologiyalarni o'zlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish uchun talab etiladigan katta hajmdagi investitsiyalar va xarajatlarni moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli bunday mamlakatlar hukumatlari iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlanirish masalalarini birinchi o'ringa qo'yishadi, "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishni esa uzoq istiqbolga mo'ljallashadi. Lekin bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ekologik holatning keskin yomonlashuvi va uning aholi salomatligiga salbiy ta'siri kuchayayotganligi, resurslardan foydalanish samarasiz ekanligi hisobiga chiqindilarning ko'payishi, rivojlangan mamlakatlarda "yashil" mahsulotlar va texnologiyalarning kengayishi va ular bilan bog'liq me'yoriy talablarning qattiqlashuvi hisobiga xalqaro savdoda raqobat ustunligini yo'qotishi kabi muammolarning chuqurlashuvi "yashil" iqtisodiyotga o'tish oldidagi nisbiy zaiflikka qaramasdan uni kechiktirib bo'limasligini ko'rsatib bermoqda. Shu sababli rivojlanayotgan mamlakatlar "yashil" iqtisodiyotni rivojlanirish borasida maxsus davlat dasturlari va strategiyalari ishlab chiqilmoqda.

1 Vaxabov, A.V. Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - T.: Universitet 2020. 296 bet.

2 Odinayev D.Sh. Yashil iqtisodiyotga o'tish va yashil o'sishni ta'minlashni baholash ko'rsatkichlari. // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. 2019. №3. – 58-68-betlar.

3 Fayzullayev J.N. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish sharoitida global qiymat zanjirlarining iqtisodiyotni diversifikatsiyalashdagi o'rni. // Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. 2020. №4. – 148-154-b.



"Yashil" iqtisodiyot bilan bog'liq innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalar odatda dunyoning innovatsion yetakchi mamlakatlarida yaratilsa-da rivojlangan mamlakatlar tomonidan tez o'zlashtirilishi va yangi "yashil" ish o'rinalarining yaratilishiga olib kelashi mumkin. Mamlakatlarning rivojlanish darajasiga ko'ra "yashil" iqtisodiyotga o'tishda yangi "yashil" mahsulot va xizmatlar bo'yicha imkoniyatlarining bir-biridan farqli tomonlarini quyidagi 1-jadvalda ko'rish mumkin.

**1-jadval:** Turli daromad darajasidagi mamlakatlarning "yashil" mahsulot va xizmatlar bo'yicha imkoniyatlari<sup>4</sup>

	Yuqori va yuqori-o'rta daromadli mamlakatlar	Quyi-o'rta va quiyi daromadli mamlakatlar
<b>Maxsulotlар</b>	Qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari, jumladan, quyosh batareyalarining yuqori texnologiyali tarkibiy qismlari, geliokonsentratorlar, shamol trubinalari va geotermal texnologiyalar; yoqilg'i elementlari va litiy-ion batareyalarini o'z ichiga olgan energiya saqlash texnologiyalari; elektr transport vositalari, yangi yengil materiallar; bioplastika; uglerodni tutib qolish va saqlash texnologiyalari.	Quyosh suv isitgichlari, quyosh suv nasoslari, quyosh quritgichlari kabi o'rta va quiyi texnologiyali arzon mahsulotlar; tomchilati bsug'orish tizimlari; yomg'ir suvini yig'ish texnologiyalari; siqilgan tabiiy gaz va etanolda ishlaydigan gaz plitalari, siqilgan tabiiy gazda ishlaydigan uch g'ildirakli taksilar. Global "yashil" mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun litiy, noyob yer elementlari, selluloza etanol kabi resurslar.
<b>Xizmatlар</b>	Aqlii tarmoqlarni loyihalash va ularni ishga tushirish, yopiq siklli eko-sanoat parklari, aqlii transport tizimlari, ilg'or energiya boshqaruv tizimlari, elektron yo'l haqi tizimi, qiymat zanjiridagi to'liq nazorat va kuzatish tizimi	Markazlashmagan va mini elektr tarmoqlarini iga tushirish va texnik xizmat ko'rsatish kabi oddiy kam xarakat xizmatlar; mehnat sig'imi yuqori bo'lgan chiqindilarni qayta ishslash; tezkor tranzit tizimlarni boshqarish. Quyosh panellari va litiy-ion batareyalarini yig'ish kabi rivojlanayotgan global "yashil" qo'shilgan qiymat zanjirida mehnat sig'imi yuqori bo'lgan ishlar

Iqlim o'zgarishlariga qarshi javob choralariga nisbatan zaiflikni quyidagi to'rt asosiy omil keltirib chiqaradi:

- Nisbatan kam turdag'i tovarlar eksportiga haddan tashqari bog'liqlik. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2022-yilda 11 mamlakat umumiyligi eksporti tarkibida yoqilg'inining ulushi 60%dan yuqori bo'ldi, 9 mamlakatda tovarlar eksportining 40%dan ortiq qismi rudalar va metallar eksporti hisobiga to'g'ri keldi<sup>5</sup>.
- Eksport yo'naltirilgan mamlakatlarda javob choralarining ko'riliishi. Tamoyil umumiyligi bo'lsa-da, differensiallashgan javobgarlik amal qiladi, chunki iqlim o'zgarishi masalasini hal qilish bo'yicha ayrim mamlakatlar og'iroq yukni o'z zimmalariga olishadi. Bunday mamlakatlardagi bozorlarga haddan tashqari bog'liqlik javob choralariga nisbatan zaiflikni kuchaytiradi.
- Eksport qilinadigan tovarlarning uglerod sig'imi. Uglerod sig'imi qazib olish, qayta ishslash, yetkazib berish yoki pirovard iste'mol jarayonida yuqori bo'lishi mumkin. Javob choralar esa mahsulot hayot siklining turli bosqichlariga yo'naltirilgan bo'ladi.
- Moslashuvchanlik qobiliyati. Turli salbiy oqibatlarga moslashish imkonini beruvchi siyosiy doirasi va institutlar hisobiga javob choralariga nisbatan zaiflik darajasi pasayadi.

Shuni takidlash zarurki, yuqorida sanab o'tilgan omillar rivojlanayotgan va bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lib, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy va iqtisodiy o'tishni amalga oshirish uchun mavjud institutlar hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Kam uglerodli va iqlimga moslashgan tovarlar va texnologiyalarga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar "yashil sanoat siyosati", deb nomlanuvchi diversifikatsiyalash usuli hisoblanadi. "Yashil" sanoat siyosati sifatida sanoat sektorida milliy darajada belgilangan ekologik normalar va ijtimoiy standartlarga amal qilinishini ta'minlovchi, shuningdek, kam uglerodli, resurslarni tejaydigan texnologiyalar asosida tarkibiy o'zgarishlar va raqobatbar-doshlikni oshirishga qodir bo'lgan yangi sektorlarning yaratilishini qo'llab-quvvatlovchi davlat ixtiyoridagi har qanday dastaklarni tushunish mumkin.

4 Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Experiences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute / Deutsches Institut für Entwicklungspolitik (DIE). 224 Ps. – P. 8. // Electronically resource: [https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green\\_industrial\\_policy\\_book.pdf](https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green_industrial_policy_book.pdf). Reference Date: 08.01.2024.

5 Jahon banki sayti ma'lumotlari asosida. <https://data.worldbank.org/>.



"Yashil" sanoat siyosatida iqlim o'zgarishiga qarshi siyosatning salbiy oqibatlariga nisbatan barqarorlikni oshirish maqsadiga quyidagi to'rt shakldagi rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin:

- Iqtisodiyot qaram bo'lgan tarmoqlarda "yashil" mahsulotlar ishlab chiqarish (masalan, po'lat ishlab chiqarishning ma'lum bir qismida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish);
  - Mahsulotlarni ularning iste'moli iqlimga kamroq ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydigan qilib qayta loyihalash-tirish (masalan, ichki yonuv dvigatelli transport vositalaridan elektrömobillar ishlab chiqarishga o'tishni rag'batlantirish, energiya tejamkor maishiy texnikalar ishlab chiqarishni rag'batlantirish);
  - Atrof-muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatayotgan tarmoqlarni bosqichma-bosqich qisqartirib (masalan, iqtisodiyot qaram bo'lgan bunday tarmoqlarga ajratilayotgan subsidiyalarni bekor qilish), ularning o'rnnini "yashil" tarmoqlar bilan almashtirish;
  - Butunlay yangi bo'lgan kam uglerodli va iqlimga moslashuvchan tarmoqlar faoliyatini yo'lga qo'yish (masalan, yangi suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishni rag'batlantirish).

Bunday chora-tadbirlar ikki maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan, ushbu chora-tadbirlar iqlimga salbiy ta'sir etuvchi tovarlarni ishlab chiqarish va eksport qilish hajmining qisqarishi natijasida kelib chiqadigan iqtisodiy yo'qotishlar oldidagi zaiflikni kamaytirishga yo'naltirilgan. Iqlimga salbiy ta'sir etuvchi tovarlarni diversifikasiyalab, mavjud ishlab chiqarishni yashillashtirib, yangi yashil mahsulotlar va texnologiyalarni rivojlantirib yoki "jigarrang" tarmoqlar uchun mavjud bo'lgan rag'batlarni bartaraf etib, bunday tovarlarning tarmoq tarkibidagi ulushini kamaytirish orqali ushbu maqsadga erishiladi. Ikkinchidan, bunday chora-tadbirlar diversifikasiyalayotgan iqtisodiyot tarmoqlarining qulay iqlim sharoitalariga va uzoq muddatli ijobji bozor istiqbollariga ega bo'lishiga qaratiladi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti uchun mos sanoat siyosati bo'yicha yagona model mavjud emas. Lekin ko'plab iqtisodchilar tomonidan sanoat siyosatining gorizontallar va vertikal turlari ajratiladi. Gorizontallar sanoat siyosati faqat muayyan tarmoq yoki korxonalariga emas, balki barcha tarmoq va korxonalar uchun investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Ushbu turdagagi chora-tadbirlar investitsion muhitni yaxshilashga va ustun darajada eksportga yo'naltirilgan bo'ladi, jumladan, infratuzilma xarakatlari kam bo'lgan maxsus iqtisodiy hududlarni yaratish; savdo hajmini oshirishga mo'ljallangan transport bilan bog'liq infratuzilmani investitsiyalash; eksport klasterlarini rivojlantirish; ilmiy va innovatsion siyosatni jadallashtirish; biznesni litsenziyalash va qo'llab-uvvatlash uchun byurokratiyani tartibga solish va qisqartirish; energetika, transport va aloqa infratuzilmalariga investitsiya kiritish; startaplar, tijoratlashtirish va eksportni alohida o'ziga xos tartibda molivalashtirishni vo'lga go'vish.

Vertikal sanoat siyosati muayyan tarmoqdagi raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan davlat aralashuvini nazarda tutadi. Bunday siyosat quyidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin: pirovard mahsulotlar importiga proteksion tariflar belgilash; muayyan resurslarga tariflarni pasaytirish; muayyan tarmoqlarni subsidiyalash: to'g'ridan to'g'ri grantlar, yer grantlari, past foizlarda ssudalar taqdim etish, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlamalarini qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va boshqa shakllarda; mahalliyashtirish bo'yicha talablar; qo'shma korxonalariga yoki texnologivalarga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya shartlarida talablar qo'yish.

"Yashil" va an'anaviy sanoat siyosatlarining eng muhim farqi shundaki, "yashil" sanoat siyosati ko'proq iqlim o'zgarishiga qarshi javob choralarini ko'rishga nisbatan zaiflikni kamaytirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, turli shakldagi bozor ojizliklariqa qaratilgan keng ko'lamli an'anaviy sanoat siyosatini amalga oshirishda foy-dalaniladigan asoslarga tayangan holda yashil sanoat siyosatidan foydalanish iqlim o'zgarishi va unga qarshi javob choralariga nisbatan zaiflik muammolarini hal qilishda kuchli va samarali dastak bo'la oladi.

"Yashil" sanoat siyosatini amalga oshirish borasida AQSH, Germaniya va Janubiy Koreya kabi taraqqiy etgan mamlakatlar boy tajribaga ega bo'lsa-da, ushbu siyosatni amalga oshirish borasidagi zaifliklar nuqtayi nazaridan Marokash va Xitov kabi rivoilananavotgan mamlakatlar tajribasini o'rGANISH muhimdir.

2011-yilda energiya iste'molining 95%ini import qilgan va energiyaga bo'lgan talabi keskin oshib borayotgan, oliy ma'lumotli yoshlar o'tasida ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan sharoitda Marokash qayta tiklanadigan energetika sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish boshlandi. Marokash "yashil" sanoat siyosati tarkibiy elementdan iborat: "yashil" bozorni yaratish, qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar, sanoatni rivojlantirishning integratsiyalashqan strategiyasi.

Mamlakatda 2009-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini 2030-yil-gacha 52%ga yetkazish belgilangan “Milliy energetika strategiyasi” ishlab chiqildi va unda quyosh energiya-sining ulushini 15%ga oshirish va uglerod oksidi emissiyasini yiliga 3,7 million tonnaga kamaytirish maqsadlari belgilandi. 2018-yilda mamlakatda Afrikadagi eng yirik 500 MVt quvvatqa ega quyosh elektrostansiyasi qurib



bitkazildi<sup>6</sup>. Bozorni kengaytirish uchun kichik ko'lamdagi quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqaruvchi kichik va o'rta korxonalarini rag'batlantirish tizimi ishlab chiqildi. Ushbu korxonalariga yillik energiya ishlab chiqarish hajmining 20%ini markaziy tarmoqqa sotish imkoniyati berildi. Qishloq joylar aholisining elektr bilan ta'minotining tomga o'rnatiladigan quyosh panellari hisobiga 95%gacha yetkazilishi hisobiga aholiga ushbu sohada xizmat ko'rsatuvchi 30 korxona, 13000 ish o'rinnari yaratildi. Mamlakatda quyosh texnologiyalari bozorini kengaytirish va boshqa tarmoqlar bilan integratsiyalash uchun quyosh suv isitgichlarini ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy qilindi, quyosh panellari va quyosh suv isitgichlari o'rnatilgan turar-joylar qurish, hamda quyosh suv nasoslariga asoslangan qishloq xo'jaligini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Marokashda an'anaviy sanoat siyosati va "yashil" sanoat siyosatini o'zaro muvofiqlashtirish borasida institut-sional islohotlar amalga oshirilmoqda<sup>7</sup>.

Marokashda 2020-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manba'larining jami energiya ta'minotida ulushi 11%ga (2015 yilda 8%), elektroenergiya ishlab chiqarishdagi ulushi 19%ga yetdi (2016-yilda 15%ga yaqin), neft va ko'mir ulushi mos ravishda 54% va 32%ga teng bo'ldi. Qayta tiklanuvchi energiya ta'minoti tarkibida bioenergiya (62%), shamol (19%) va quyosh (16%) energiya resurslari ulushi yuqoridir<sup>8</sup>.

Xitoyning atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va milliy avtomobilsozlik sanoatini raqobatbardoshligini oshirish maqsadlari qo'yilgan "yashil" sanoat siyosatida ustuvor yo'nalish elektromobillar ishlab chiqarish hajmi va eksportini kengaytirish bo'lmoqda. Ushbu mamlakat modeli katta qiymatdagi ilmiy tadqiqotlar, xorijiy investorlar bilan texnologiyalar almashish kelishuvlari, davlat xaridlari, xarid subsidiyalari va shahar sinovlarini o'zida mujassamlashtiradi. Davlat tomonidan subsidiyalar ajratilishi elektr skuter, mototsikl, yengil avtomobil (jumladan, gibridd), avtobus va yuk mashinalarini ishlab chiqarishni kengayishiga, xalqaro savdoda arzon narx bilan raqobat ustunligiga erishishga imkon bermoqda. Arzon narxlardagi ikki g'ildirakli elektromobillar Xitoy va boshqa o'rta daromadli rivojlanayotgan mamlakatlar uchun CO<sub>2</sub> chiqarilishini kamaytirishda kam xarajat va samarali vosita bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda subsidiyalar hajmi kamaygan bo'lsa-da, 2023-yilda quyosh batarayeyalari, litiy-ion batareyalari va elektromobillar eksporti hajmi 29,9%ga ortdi<sup>[9]</sup>, elektr batareyalari va gibridd avtomobillar ishlab chiqarish hajmi 2016-2022-yillarda 10 baravar oshib, yiliga 3,5 mln. donaga yetdi<sup>10</sup>.

Xitoya elektromobillar qamrovining oshib bormoqda, biroq ularni quvvatlash manbalari hamon ko'mirda ishlaydigan zavodlar bo'lib qolayotganligi sababli, mamlakatda bosqichma-bosqich ko'mirdan voz kechish, qayta tiklanuvchi resurslar ulushini oshirib borish borasidagi amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarni jadal-lashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya ta'minoti oshib borayotgan bo'lsa-da, uning umumiyligi energiya ta'minotidagi ulushi pastligicha qolmoqda (2015-yilda 8%, 2020 9%). Jon boshiga to'g'ri keladigan qayta tiklanuvchi energiya quvvati 2015-yil 300V/kishidan yuqori bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda 715,5 V/kishiga yetdi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manba'lar ulushi 2016-2021-yillarda 22%dan 28%gacha oshdi<sup>11</sup>.

"Yashil" sanoat siyosati muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, ekologik texnologiyalar tizimida yangi innovator va raqobatchilarining paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladigan atrof-muhit uchun ijobjiy bo'lgan natijalar ekologik samaralar hisoblanadi. An'anaviy sanoat siyosatining samarasi asosan milliy darajada bo'ladi, yashil sanoat siyosatining samarasi esa bir vaqtning o'zida milliy va global ahamiyatga ega bo'ladi. "Yashil" mahsulotlar ishlab chiqarishda innovatsiya va raqobatning oshishi ham global miqyosdag'i samara hisoblanadi.

"Yashil" sanoat siyosatini amalga oshirishda iqlim o'zgarishiga qarshi javob choralariga nisbatan yuqori darajada zaif bo'lgan tarmoqlarni qisqartirish yoki tugatish zarurati ham kelib chiqishi mumkin. Shuningdek, "jigarrang" tarmoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga chuqur singib ketganligi va ular odatda iqtisodiyotda katat ulushga ega ekanligi sababli ularni qisqartirish oldindan prognoz qilish va tegishli ravishda boshqarish zarur bo'lgan o'tish davri xarajatlarini keltirib chiqaradi.

6 B. Schinke, J. Klawitter. Background Paper: Country Fact Sheet Morocco. Energy and Development at a glance 2016. 58 Ps. P. 31.

7 Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Experiences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute / Deutsches Institut für Entwicklungspolitik (DIE). 224 P. – PP. 158-160. // Electronically resource: [https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green\\_industrial\\_policy\\_book.pdf](https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green_industrial_policy_book.pdf). Reference Date: 08.01.2024.

8 IRENA. ENERGY PROFILE. Morocco. 8th August, 2023. Electronically resource: [https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical\\_Profiles/Africa/Morocco\\_Africa\\_SP.pdf?rev=f6a871ece34048599cc009a443fd6b04](https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Africa/Morocco_Africa_SP.pdf?rev=f6a871ece34048599cc009a443fd6b04). Reference Date: 08.01.2024.

9 State Council Information Office of People Republic of China. China's foreign trade ends 2023 on solid footing with new driving forces. Xinhua | January 13, 2024. Electronically resource: [http://english.scio.gov.cn/pressroom/2024-01/13/content\\_116938921.htm](http://english.scio.gov.cn/pressroom/2024-01/13/content_116938921.htm). Reference Date: 14.01.2024.

10 Statista. Electric vehicles worldwide - statistics & facts. Electronically resource: <https://www.statista.com/topics/1010/electric-mobility/#topicOverview>. Reference Date: 14.01.2024.

11 IRENA. ENERGY PROFILE. China. 8th August, 2023. Electronically resource: [https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical\\_Profiles/Asia/China\\_Asia\\_SP.pdf?rev=609579a3dbc04ab885bad7d11bc8b804](https://www.irena.org/-/media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Asia/China_Asia_SP.pdf?rev=609579a3dbc04ab885bad7d11bc8b804). Reference Date: 08.01.2024.



Yashil sanoat siyosatining “jigarrang” tarmoqlarni bosqichma-bosqich qisqartirishga yordam beruvchi shaklini amalga oshirishda foydalanish mumkin bo’lgan turli dastaklar mavjud, jumladan:

- Ekologik soliqlar, to’lovlar, bojlar va yig’imlar. Har qanday tarmoq yoki korxonaga yuklatilgan moliyaviy yuk ularning iqtisodiyotning boshqa subyektlariga nisbatan raqobatbardoshligini kamaytiradi.
- Qisqartirilayotgan tarmoqlarga berilgan imtiyozlarni bekor qilish. Bunday imtiyozlarga subsidiyalar, soliq imtiyozlari, huquqiy rag’batlantirishlarni misol qilish mumkin. Ushbu dastak ham iqtisodiyotning boshqa subyektlari raqobatbardoshligini oshiradi.
- Eng kuchli dastaklardan biri – muayyan tarmoq va korxonalar faoliyatini majburiy to’xtatish. Agar to’xtatilayotgan tarmoqlar xususiy sektorga tegishli bo’lsa, ushbu siyosat me’yoriy-huquqiy taqiqlar yoki savdo chekllovleri orqali amalga oshirilishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib, aytish mumkinki, “yashil” sanoat siyosati iqlim o’zgarishlariga qarshi javob choralariga nisbatan zaiflikni kamaytirishning samarali yo’llaridan biridir. Investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan horizontal chora-tadbirlar bilan birgalikda muayyan tarmoqlarni rag’batlantirishga yo’naltirilgan qattiq sanoat siyosati shaklidagi “yashil” sanoat siyosatini yuritish samara keltirishi mumkin.

Yashil sanoat siyosati uchun universal yechim mavjud emas va ushbu siyosatni mavjud vaziyatga moslashtirilgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Barqaror “yashil” o’sishga erishish texnologik taraqqiyot va murakkab tarkibiy o’zgarishlarni talab etadi. “Yashil” sanoat siyosatini amalga oshirishda mammalakat yalpi ichki mahsulotda katta ulushga ega bo’lgan tugatilayotgan tarmoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy yukini oshirib yubormaslik muhimdir. Bu yerda haqiqatda umumiyligi o’sishga erishish uchun iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini ham bir vaqtning o’zida rivojlantirish zarur.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Vaxabov, A.V. Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik. - T.: Universitet 2020. 296 bet.
2. Odinayev D.Sh. Yashil iqtisodiyotga o’tish va yashil o’sishni ta’minlashni baholash ko’rsatkichlari. // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2019. №3. – 58-68-betlar.
3. Fayzullayev J.N. “Yashil” iqtisodiyotga o’tish sharoitida global qiymat zanjirlarining iqtisodiyotni diversifikatsiyalashdagi o’rni. // Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2020. №4. – 148-154-b.
4. Altenburg, T., & Assmann, C. (Eds.). (2017). Green Industrial Policy. Concept, Policies, Country Experiences. Geneva, Bonn: UN Environment; German Development Institute / Deutsches Institut für Entwicklungspolitik (DIE). 224 Ps. –// [https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green\\_industrial\\_policy\\_book.pdf](https://www.unido.org/sites/default/files/files/2017-12/green_industrial_policy_book.pdf).
5. B. Schinke, J. Klawitter. Background Paper: Country Fact Sheet Morocco. Energy and Development at a glance 2016. 58 Ps. P. 31.
6. IRENA. Energy profile. Morocco. 8th August, 2023. // [https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical\\_Profiles/Africa/Morocco\\_Africa\\_SP.pdf?rev=f6a871ece34048599cc009a443fd6b04](https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Africa/Morocco_Africa_SP.pdf?rev=f6a871ece34048599cc009a443fd6b04).
7. IRENA. Energy Profile. China. 8th August, 2023. // [https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical\\_Profiles/Asia/China\\_Asia\\_SP.pdf?rev=609579a3dbc04ab885bad7d11bc8b804](https://www.irena.org//media/Files/IRENA/Agency/Statistics/Statistical_Profiles/Asia/China_Asia_SP.pdf?rev=609579a3dbc04ab885bad7d11bc8b804).
8. State Council Information Office of People Republic of China. China’s foreign trade ends 2023 on solid footing with new driving forces. Xinhua | January 13, 2024. [http://english.scio.gov.cn/pressroom/202401/13/content\\_116938921.htm](http://english.scio.gov.cn/pressroom/202401/13/content_116938921.htm).
9. Statista. Electric vehicles worldwide – statistics & facts. // <https://www.statista.com/topics/1010/electric-mobility/#topicOverview>.
10. <https://data.worldbank.org/> – Juhon banki statistik ma'lumotlar bazasi sayti.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

